

# Surxon tongi

2026-yil  
18-fevral  
(chorshanba)  
7-son  
(17 991)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi



monitoring tizimlari ishlaydi. Bunday yondashuv nafaqat jamoat xavfsizligini ta'minlashga, balki yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda ham muhim omil bo'ladi. Savdo nuqtalarining

tayanadi. Natijada, shahar infratuzilmasi ustidan nazorat kuchayib, fuqarolarning xavfsizlik darajasi sezilarli ravishda oshadi.

## TA'LIMDA YAPONIYA TAJRIBASI

Shaharda barpo etilayotgan O'zbekiston-Yaponiya texnologiyalar universiteti nafaqat oliy ta'lim muassasasi, balki yaxlit ta'lim ekotizimi sifatida loyihalashtirilgan. Loyiha doirasida xalqaro universitet, professional

mahalliy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish orqali raqobatbardosh kadrlar yetishtirish ko'zda tutilmoqda.

Viloyat rahbari qurilish ishlarini belgilangan muddatlarda, tasdiqlangan loyiha hujjatlari asosida va yuqori sifat bilan amalga oshirish, shuningdek, ish sur'atlarini yanada jadallashtirish yuzasidan mas'ullarga qat'iy topshiriqlar berdi.

Termiz shahrida amalga oshirilayotgan ushbu ikki

**Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar doirasida hududlarni raqamlashtirish, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan.**

## ISLOHOTLAR SAMARASI

## RAQAMLI BOSHQARUV DAN

## XALQARO TA'LIMGACHA...

Ana shu maqsadlar ijrosi sifatida Termiz shahrida zamonaviy situatsion markaz barpo etilayotgani quvonarli hol. Shuningdek, shaharda ana shunday yangilanishlarga hamohang tarzda O'zbekiston-Yaponiya texnologiyalar universiteti qurilishi ham jadallik bilan davom etmoqda. Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov mazkur loyihalarni doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishib, mas'ullarga aniq topshiriqlar berdi.

### XAVFSIZLIK VA SHAFFOFLIKNING YANGI BOSQICHI

Termiz shahrida barpo etilayotgan situatsion markaz viloyat hududidagi bozorlarni to'liq raqamlashtirish, kuzatuv kameralarini yagona

markazlashgan tizimga integratsiya qilish va tezkor tahlil mexanizmlarini yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Bu orqali jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, sodir etilgan holatlarni tezkor aniqlash hamda mas'ul xizmatlar o'rtasida muvofiq-lashtirilgan hamkorlikni kuchaytirish maqsad qilingan.

Markaz ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanadi. Unda real vaqt rejimida videokuzatuv, ma'lumotlarni tahlil qilish, tezkor ogohlantirish va



raqamlashtirilishi moliyaviy oqimlarning shaffoqligini oshirib, noqonuniy faoliyatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Situatsion markazning yana bir muhim afzalligi — boshqaruv jarayonlarining markazlashuvidir. Turli idoralar o'rtasidagi axborot almashinuvi tezlashadi, qaror qabul qilish jarayoni aniq ma'lumotlarga

ta'lim markazi hamda zamonaviy maktabni o'z ichiga olgan majmua tashkil etish rejalashtirilgan.

Mazkur ta'lim maskani ilg'or xorijiy tajriba asosida muhandislik, axborot texnologiyalari va texnik yo'nalishlarda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni maqsad qilgan. Yaponiyaning ilg'or texnologik tajribasini

Yirik loyiha hududning nafaqat bugungi, balki istiqboldagi taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim qadamlardir. Raqamli boshqaruv tizimlari va zamonaviy ta'lim infratuzilmasi uyg'unligi esa viloyatning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishida yangi bosqichni boshlab beradi.

“Surxon tongi”

Prezidentimizning 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Termiz shahridagi 5-umumta'lim maktabida sayyor qabul o'tkazildi.

O'zbekiston Ekologik partiyasining Termiz shahar bo'limi hamda Termiz shahar adliya bo'limi huzuridagi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi hamkorligida tashkil etilgan tadbirda huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari, byudjet tashkilotlari mas'ullari, shuningdek, Xalq

deputatlari viloyat hamda shahar Kengashlariga O'zbekiston Ekologik partiyasidan saylangan deputatlar ishtirok etdi.

Qabulning asosiy maqsadi — aholi muammolarini bevosita mahallaning o'zida, ortiqcha byurokratik to'siqlarsiz hal etish, fuqarolarga huquqiy va amaliy ko'mak berishdan iborat bo'ldi.

## MUAMMOLAR JOYIDA HAL

Qabul davomida fuqarolardan ijtimoiy, huquqiy va oilaviy masalalar yuzasidan murojaatlar kelib tushdi. Mutasaddi tashkilotlar tomonidan murojaatlar yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi, ayrim masalalar joyida hal etildi. Qo'shimcha o'rganish talab etadigan murojaatlar esa tegishli

Eng muhimi, fuqarolar o'z muammolari bilan turli idoralarga qatnab yurmasdan, masalalarni bevosita mas'ullar ishtirokida o'zlarini yashab turgan hududda hal qilish imkoniga ega bo'ldi. Bu esa aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamladi.

**Bekzod TURDIYEV,**  
O'zbekiston Ekologik partiyasi  
Termiz shahar bo'limi raisi

### PARTIYALAR HAYOTI

idoralarga yo'naltirilib, nazoratga olindi. Sayyor qabul ochiq va samimiy ruhda o'tdi.

### TASHABBUS

## “ADOLAT” FIRIBGARLIKKA QARSHI

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida firibgarlik jinoyatlari jamiyat hayotiga jiddiy xavf solayotgan muammolardan biriga aylandi. Zamonaviy texnologiyalar inson hayotini yengillashtirish bilan birga, ayrim nopok niyatli shaxslar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ham ochib bermoqda.

Shu bois, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi tomonidan Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Mahallalar uyushmasi bilan hamkorlikda “Ogoh bo'ling — firibgar!” aksiyasi yo'lga qo'yildi. Mazkur tashabbusning asosiy maqsadi aholining huquqiy ongi va moliyaviy savodxonligini oshirish, fuqarolarni turli aldov va nayranglardan himoya qilishdan iborat. Ma'lumki, mamlakatimizda mulk huquqi qonun bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir shaxsning mulki daxlsiz ekani, uning qonuniy himoyasi ta'minlanishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida firibgarlik jinoyati uchun javobgarlik choralari nazarda tutilgan.

Qonunlardagi qat'iy normalarga qaramasdan, afsuski, so'nggi yillarda firibgarlik turlari va usullari keskin ko'payib, yanada murakkab va yashirin tus olmoqda. Firibgarlikning mohiyati aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali o'zganing mol-mulkini yoki mulkiy huquqini qo'lga kiritishdan iborat. Bugungi kunda firibgarlar nafaqat oddiy muloqot yoki qog'oz hujjatlar orqali, balki telefon qo'ng'iroqlari, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, soxta veb-saytlar va elektron to'lov tizimlari orqali ham faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, kiberfiribgarlik jinoyatlari jadal sur'atlarda o'sib borayotgani tashvishli holat.

Firibgarlikka qarshi kurashishda eng samarali vosita — bu bilim va hushyorlikdir. Hech qachon karta raqami, PIN-kod, SMS-kod yoki boshqa maxfiy ma'lumotlarni begona shaxslarga bermaslik kerak. Noma'lum havolalarga kirmaslik, faqat rasmiy ilovalardan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda ikki bosqichli himoyani yoqish, har bir akkaunt uchun mustahkam va turli parollar ishlatish muhim ahamiyatga ega.

Firibgarlikka qarshi kurashishda eng samarali vosita — bu bilim va hushyorlikdir. Hech qachon karta raqami, PIN-kod, SMS-kod yoki boshqa maxfiy ma'lumotlarni begona shaxslarga bermaslik kerak. Noma'lum havolalarga kirmaslik, faqat rasmiy ilovalardan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda ikki bosqichli himoyani yoqish, har bir akkaunt uchun mustahkam va turli parollar ishlatish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, **my.gov.uz** portali orqali shaxsiy kabinetda nomingizga onlayn kredit rasmiylashtirilishiga cheklov qo'yish imkoniyatidan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Bu kabi profilaktik choralar ehtimoliy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, har qanday holatda shoshilmaslik zarur. Firibgarlar aynan insonning qo'rquvi, ishonuvchanligi yoki tez foyda ko'rish istagidan foydalanadi. Shoshilish — firibgarning qurolli, tekshirish esa fuqaroning himoyasidir. Agar firibgarlikka duch kelinsa, darhol bankka murojaat qilish, kartani bloklatish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish va barcha dalillarni saqlab qolish lozim.

Ayni paytda ushbu aksiya doirasida joylarda tizimli va manzilli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Xalq deputatlari viloyat Kengashi hamda barcha tuman kengashlari tomonidan alohida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, aholi bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, targ'ibot tadbirlari va amaliy seminarlar tashkil etilmoqda. Mazkur tadbirlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va soha mutaxassislari ishtirokida firibgarlikning yangi usullari, ulardan himoyalash mexanizmlari hamda huquqiy oqibatlar atroflicha tushuntirilmoqda. Bu esa profilaktika ishlarini kuchaytirish, ayniqsa, yoshlar va keksa avlod vakillari orasida ogohlilikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Firibgarlikka qarshi kurash faqat davlat idoralari yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasidagi vazifa emas. Bu — butun jamiyatning umumiy mas'uliyati. Har bir oilada, har bir mahallada, har bir ta'lim muassasasida hushyorlik madaniyati shakllansa, firibgarlikka qarshi mustahkam qalqon yaratiladi.

Ogoh bo'ling, firibgarlarga aldanmang va o'zingiz hamda yaqinlaringizni asrang.

**Rustam HAMRAYEV,**  
“Adolat” SDP viloyat  
Kengashi raisi

## VOHA BO'YLAB...

**ANGOR** markaziy dehqon bozorida viloyatimizning barcha hududlaridagi dehqon bozori va savdo majmualarida bo'lgani kabi Ramazon oyi uchun arzonlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkasi tashkil etildi. Yarmarkada savdoga chiqarilayotgan asosiy turdagi mahsulotlar narxi va sifatiga alohida e'tibor qaratilib, qat'iy nazorat o'rnatiladi. Arzonlashgan oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkasi aholiga fazilatli oy yakunigacha xizmat ko'rsatadi.

**TERMIZ** davlat universitetining bir guruh iqtidorli talabalari Navoiy viloyatida o'tkazilgan kurash bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqasida ishtirok etdilar. Musobaqada viloyat sharafini himoya qilgan sportchilar bitta oltin, bitta kumush va bitta bronza medalini qo'lga kiritdi.

**TERMIZ** TUMANIDA “Bo'ri polvon” oilaviy korxonasi tomonidan tashkil etilgan zamonaviy umumiy ovqatlanish shoxobchasi o'z faoliyatini boshladi. Mazkur tashabbus loyihaning birinchi bosqichi hisoblanib, uning doirasida 20 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

**SHEROBOD**lik iqtidorli yosh Suluv Mirzayeva Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tomonidan o'tkazilgan yilning eng nufuzli “Sehri ranglar” respublika tanlovida ishtirok etdi. Quvonarlisi, Suluvning mazmunan boy, badiiy jihatdan mukammal hamda ijodiy yondashuv asosida yaratilgan ishlari hay'at a'zolari tomonidan yuqori baholanib, oltin medal bilan taqdirlandi.





# SHAFFOFLIK VA TEZKORLIKNI TA'MINLAYDI

**Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni zamonaviy, ochiq va qulay mexanizmlar asosida yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-oktyabrdagi 526-sonli qarori bilan "E-auksion shop" elektron savdo do'koni orqali mol-mulkni soddalashtirilgan tartibda sotish va ijaraga berish tizimi joriy etildi.**

► **QULAYLIK**

Ushbu qaror mulk realizatsiyasi jarayonini tubdan takomillashtirib, uni shaffof, tezkor va ortiqcha byurokratik to'siqlarsiz amalga oshirish imkonini yaratadi. Shuningdek, ushbu qarorga ko'ra, davlat daromadiga olingan mol-mulklar "E-auksion shop" platformasi orqali soddalashtirilgan auksion tamoyillari asosida sotiladi. Bunday mol-mulklar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda Bojxona-servis tomonidan elektron savdo do'koniga joylashtiriladi. Elektron savdolarida ishtirok etish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar onlayn ariza topshirish orqali savdolariga qo'shilishlari mumkin. Jarayonning to'liq raqamlashtirilgan inson omilini kamaytirib, ochiqlik va teng raqobat muhitini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 16-oktyabrdagi 540-sonli qaror ham xususiy mulkdorlar uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Endilikda o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotish yoki ijaraga berishni istagan shaxslar uni "E-auksion shop" orqali soddalashtirilgan tartibda amalga oshirishi mumkin. Mulkdor savdo usulini mustaqil tanlaydi: narxni oshirib borish tamoyili asosida auksion shaklida yoki e'lon qilingan qat'iy narxda sotish yo'li bilan. Bu esa mulkdorlarga ortiqcha vaqt va xarajatsiz, keng auditoriyaga chiqish hamda eng maqbul taklifni olish imkonini beradi.

Narxni oshirib borish tamoyili asosidagi savdolar kamida ikki nafar ishtirokchi mavjud bo'lganda o'tkaziladi. Boshlang'ich narx buyurtmachining o'zi tomonidan belgilanadi, savdoda qatnashish

uchun esa boshlang'ich narxning 5 foizi miqdorida zakalat puli to'lanadi. Ishtirokchilarning arizalari e'lon joylashtirilgan kundun boshlab savdo yakunlangunga qadar avtomatik tarzda qabul qilinadi. Savdo jarayoni aniq belgilangan muddatlarda o'tkazilib, besh ish kuni davom etadi. Shu tariqa eng yuqori taklifni bildirgan ishtirokchi aniqlanmaguncha savdo davom etadi va oxirgi tasdiqlangan taklif egasi g'olib deb topiladi.

Savdo qadamlari ham aniq mezonlarga asoslanadi. Dastlabki to'rtta qadamda narx boshlang'ich qiymatning 5 foiziga oshiriladi, keyingi qadamlarda esa 3 foiz etib belgilanadi. Agar savdo obyekti boshlang'ich narxi bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan yuqori bo'lsa, barcha qadamlarda 2 foizlik oshirish qo'llanadi. Bu tartib yirik qiymatdagi obyektlar bo'yicha ham adolatli va muvozanatli savdo mexanizmini ta'minlaydi.

"E-auksion shop" platformasining muhim jihatlardan biri bu qiymati to'liq to'langan savdo obyektlari bo'yicha rasmiylashtirilgan bayonnoma oldi-sotdi shartnomasi kuchiga ega hisoblanadi va mulk hamda mulkiy huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun bevosita asos bo'ladi. Bunda shartnomani notarial tasdiqlash talab etilmaydi. Bu esa vaqt va mablag'ni tejash bilan birga, jarayonni sezilarli darajada soddalashtiradi.

Mazkur qarorlarning ahamiyati shundaki, ular mulk savdosida shaffoflikni oshiradi, raqobat muhitini kuchaytiradi va davlat daromadiga olingan mol-mulkni tezkor realizatsiya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, xususiy mulkdorlar uchun ham ishonchli, keng auditoriyaga ega va qulay elektron savdo maydonchasi yaratiladi. Natijada, mulkiy munosabatlar zamonaviy raqamli tizim asosida tartibga solinib, iqtisodiy samaradorlik va ochiqlik ta'minlanadi.

**Bekzod JUMAYEV,**  
"Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish"  
AJ Surxondaryo viloyati vakili

**Bugungi kunda aholi va qishloq xo'jaligini to'liq hamda aniq ro'yxatga olish davlat rejalashtiruvchi, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy siyosat samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, hududlar kesimida aniq statistik ma'lumotlarga ega bo'lish infratuzilmani rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va resurslarni oqilona taqsimlashda asosiy omil hisoblanadi.**

Shu nuqtayi nazardan, viloyatimizda olib borilayotgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayoni dolzarb vazifalardan biri sifatida davom etmoqda. Ta'kidlash o'rinishi, viloyatda ro'yxatga olish ishlarining ikkinchi bosqichi qizg'in pallaga kirgan. Tashkil etilgan shtabda o'tkazilgan navbatdagi yig'ilishda jarayonning borishi, erishilgan natijalar va mavjud muammolar atroflicha tahlil qilindi. Unda asosiy e'tibor hali ro'yxatdan o'tmagan xonadonlarni to'liq qamrab olish masalasiga qaratildi. Yig'ilish davomida mutasaddilarga uyama-uy yurish ishlarini yanada

jadallashtirish, aholi bilan tushuntirish ishlarini kuchaytirish hamda har bir fuqaroning ro'yxatga olish jarayonida faol ishtirokini ta'minlash yuzasidan aniq topshiriqlar berildi. Ta'kidlanganidek, ma'lumotlarning to'liqligi va haqqoniyligi kelgusidagi ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jarayonni bevosita O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi rahbariyati vakillari, jumladan, vazir o'rinbosari N.Qodirov hamda respublika ishchi guruhi a'zolari muvofiqlashtirib bormoqda. Ular har kuni ikki mahal hududiy

shtablar faoliyatini o'rganib, texnik va tashkiliy muammolarni joyida hal etish choralarini ko'ramoqda. Bu esa jarayonning tizimli va samarali tashkil etilayotganidan dalolat beradi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish — bu shunchaki statistik tadbir emas, balki hududning bugungi holati va ertangi taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim jarayondir. Har bir xonadon va har bir fuqaroning ro'yxatdan o'tishi kelajak rejalari uchun

## ISHLAR JADALLASHDI

JARAYON



Surxondaryoda ro'yxatga olish ishlarining izchil va nazorat ostida olib borilishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Jarayonda barcha fuqarolarning faol ishtiroki esa umumiy maqsad — aniq va ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Boysari XAYINOV**

**O'tgan bir yil Surxondaryo viloyati uchun energetika sohasida keng ko'lami ishlar, qurilishlar va modernizatsiya yo'nalishida muhim mavqega ega bo'ldi. Hukumat va xususiy investorlar hamkorligida elektr energiyasi ishlab chiqarish, gaz ta'minoti va energiya infratuzilmasini mustahkamlash bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirildi. Yutuqlar esa maqtanarli.**

## EKSPORT POTENSIALI OSHIRILADI

2025-yil viloyatda kichik gidroelektro-stansiyalar (GES) qurib bitkaziladi — jumladan, Zarchob-3 GESning quvvati 16 MVtga teng, yillik o'rtacha ishlab chiqarish quvvati qariyb 69,6 million kVt/soat. Bu stansiya viloyatdagi gidroenergetik qobiliyatni sezilarli darajada oshiradi. Yangi GESlar umumiy elektr energiyasi hajmini oshirishga va mahalliy aholi hamda sanoat rejimi uchun ekologik barqaror energiya ta'minotini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu GESlar nafaqat elektr ishlab chiqarishni kengaytirish, balki suv resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga ham yordam beradi. Shuningdek, viloyatda katta miqyosda gazga asoslangan elektr stansiyalari qurilishi rejalashtirilgan. Xususan, bir necha yildan beri loyihalashtirilayotgan 1,560–1,590 MVt quvvatli gaz bilan ishlovchi kombinirovan siki elektr stansiyasi (CCGT) qurilmoqda. Ushbu stansiya viloyatning energiya tovarlariga bo'lgan talabini to'liq qondirish va Yevropa bozoriga eksport potensialini oshirishga xizmat qiladi.

Bu kabi yirik stansiyalar energiya xavfsizligini mustahkamlaydi, milliy elektr tizimiga barqarorlikni ta'minlab, gaz resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Shu bilan birga, elektr energiyasini uzatish va taqsimlash tizimlarini takomillashtirish yo'nalishida ham qator choralar amalga oshirildi. Tizimdagi transformator punktlari va tarmoqlar mukammallashtirilmoqda, bu esa elektr energiyasi yo'qotilishini qisqartirish va talabni barqaror qondirishga imkon beradi. Bundan tashqari, taraqqiyot choralarini viloyatda energiya ta'minotining ishonchligi va barqarorligini oshiradi.

Bu ishlar aholi va sanoat uchun barqaror va ekologik toza energiya ta'minotini ta'minlaydi, ichki bozor ehtiyojini qondirish hamda mintaqaviy eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

**Axtam IBROGIMOV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Bosh prokuraturasi boshqarma  
prokurori

**Jismoniy tarbiya jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, u nafaqat inson salomatligini mustahkamlaydi, balki yoshlarning ma'naviy-irodaviy sifatlarini ham shakllantiradi.**

## SOG'LOM AVLOD POYDEVORI

Bugungi globalashuv davrida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash har bir davlatning ustuvor vazifasiga aylangan. Shu ma'noda, O'zbekistonda ham sport va jismoniy tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan yoshlar o'rtasida sportni rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va iqtidorli sportchilarni qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlar hayotida jismoniy tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonda sport mashg'ulotlarini tizimli yo'lga qo'yish sog'lom turmush

tarzini shakllantiradi. Sport bilan muntazam shug'ullangan bola intizomli, maqsadga intiluvchan va jamoa bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lib ulg'ayadi.

Shu bois har bir ta'lim muassasasida zamonaviy sport maydonchalari, malakali murabbiylar va sport to'garaklari faoliyatini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya inson organizmiga ko'plab ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

1. Salomatlikni mustahkamlaydi — yurak-qon tomir va nafas olish tizimini yaxshilaydi.
2. Immunitetni oshiradi — organizmning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini kuchaytiradi.
3. Ruhiy barqarorlikni

ta'minlaydi — stress va tushkunlikni kamaytiradi.

4. Irodani chiniquiradi — qat'iyat, sabr-toqat va g'alabaga ishonchni shakllantiradi.

Sport bilan shug'ullangan yoshlar zararli odatlardan yiroq bo'lib, o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi va unga erishishga intiladi.

Jismoniy tarbiya — sog'lom turmush tarzining asosi, yoshlar kelajagining kafolatidir. Uni yoshlar hayotiga keng tatbiq etish orqali nafaqat sog'lom, balki ma'nan yetuk, irdovali va vatanparvar avlodni tarbiyalash mumkin. Chempionlarni kashf etish va sportni ommalashtirish esa mamlakat nufuzini xalqaro maydonda yuksaltiradi.

**G'iyos FAYZULLAYEV,**  
Qumqo'rg'on tumanidagi  
14-maktabning jismoniy  
tarbiya fani o'qituvchisi

So'nggi yillarda ushbu sohani raqamlashtirish, inson omilini kamaytirish hamda korrupsiyaviy xavflarning oldini olishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Vazirlar Mahkamasining

mexanizmlari asosida, ochiq raqobat muhitida sotish imkonini yaratadi. Natijada mulk qisqa

## MUTAXASSIS MINBARI



## RAQAMLI NAZORAT KUCHAYMOQDA

**Sud hujjatlari va boshqa organlar qarorlarining o'z vaqtida hamda to'liq ijro etilishi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir. Ayniqsa, ijro jarayonida xatlangan mol-mulkni realizatsiya qilish bosqichi shaffoflik, adolat va ochiqlikni talab qiladi.**

2024-yil 20-yanvardagi 39-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom ana shu islohotlarning mantiqiy davomidir.

Unga ko'ra, 2024-yil 1-apreldan boshlab sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari majburiy ijrosi doirasida xatlangan mol-mulkni shartnoma-vositachilik asosida sotish faqat realizatsiya jarayonini boshidan oxirigacha masofaviy monitoring qilish imkonini beruvchi elektron tizimni joriy etgan savdo tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi. Bu talab mol-mulkni qabul qilish, saqlash va sotish bosqichlarida doimiy nazoratni ta'minlab, noqonuniy harakatlar hamda manfaatlar qonashuvining oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, savdo do'konlarini tanlab olishda internet-savdoni yo'lga qo'ygan tashkilotlarga ustunlik berilishi belgilandi. Bu yondashuv realizatsiya jarayonini tezlashtiradi, xaridorlar doirasini kengaytiradi va xatlangan mol-mulkni bozor

muddatda va bozor talablariga mos ravishda sotilishi ta'minlanadi.


Nizomga muvofiq, savdo tashkilotlari haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan yuritiladigan maxsus reyestrda aks ettiriladi. Bu reyestr tizimning shaffofligini ta'minlab, faqat belgilangan talablarga javob beradigan tashkilotlarning jarayonda ishtirok etishiga imkon beradi. Qayta tashkil etish yoki bankrotlik arafasida bo'lgan, olti oydan ortiq faoliyat yuritmagun, soliq qarzdorligi mavjud yoki mol-mulk harakati monitoringi elektron tizimni joriy etish majburiyatini olmagan tashkilotlar realizatsiya jarayonida qatnasha olmaydi. Bu talablar savdo jarayonining barqarorligi va ishonchligini ta'minlashga qaratilgan.

Mol-mulkni realizatsiya qilish istagida bo'lgan savdo tashkilotlari Byuroga Yagona interaktiv davlat xizmatlari

portali yoki soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron tarzda murojaat qiladi. Jarayonning to'liq raqamli shaklda amalga oshirilishi ortiqcha byurokratik bosqichlarni qisqartirib, tadbirkorlik subyektlari uchun qulaylik yaratadi.

Umuman olganda, mazkur Nizom ijro tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirib, xatlangan mol-mulkni samarali va adolatli realizatsiya qilish mexanizmini shakllantiradi. Bu esa nafaqat ijro samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda huquq ustuvorligi va davlat organlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

**Kamolbek ASHUROV,**  
Qumqo'rg'on tuman  
adliya bo'limi davlat  
xizmatlari markazi  
bo'lim boshlig'i



## SHARQNING AVRELIY AVGUSTINI

**Zahiriddin Muhammad Bobur deganda, ko'z oldimizda nafaqat buyuk imperiya asoschisi, balki didi nozik shoir va qat'iyatli sarkarda gavdalanadi. Uning shaxsiyati — Sharq renessansining eng yorqin va ziddiyatli namunalardan biridir.**

Bugun biz Zahiriddin Muhammad Boburni shunchaki tarixiy siyom emas, balki insoniylik va matonatning tirik namunasi sifatida qayta kashf etamiz. Uning hayoti — cho'l yelining o'tkinchi izi emas, balki tog'lar orasidan oqib o'tgan, o'ziga yo'l ochgan daryo edi. Bobur shaxsiyatining eng hayratlanarli tomoni shundaki, unda bir-biriga zid bo'lgan ikki qutb — mutlaq hukmdorlik qat'iyati va darveshona xoki-sorilik bir vaqtda mavjud bo'lgan. U taxt uchun kurashlarda beomon edi, biroq Andijonning chekka bog'laridagi bitta gul-u rayhonning ifori haqida o'nlab satrlar bitishga vaqt topar edi:

**"Tole' yo'qi, jonimga balog' bo'ldi, Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi..."**

Ushbu misralar shunchaki she'r emas, balki o'z xatosini tan olishdan qo'rqmaydigan, o'z nafi bilan doimiy muluqotda bo'lgan insonning irqidir. Agar Zahiriddin Muhammad Bobur faqat jangchi bo'lganida, tarix uni unutishi mumkin edi. Ammo "Boburnoma" uni boqiy qildi. Bu asar shunchaki voqealar bayoni emas, balki XVI asrning ensiklopediyasidir. Unda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning tabiati, hayvonot dunyosi, jo'g'royfasi shunday aniqlik bilan tasvirlanganiki, bugungi kun olimlari ham uning kuzatuvchanligiga tan berishadi. Bobur shaxsidagi ilimga chanqoqlik uni o'z davrining botanigi, geografi va tilshunosiga aylantirdi. U yangi "Xatti Boburiy" alifbosini yaratishi bilan turkiy yozuv madaniyatini yuksaltirishga intilgan islohotchi sifatida namoyon bo'ldi.

Bobur shaxsiyatining eng og'riqli nuqtasi — bu Vatanga bo'lgan ishtiyogidir. Dunyoning eng boy o'lkalaridan biri bo'lgan Hindistonda turib, "qovunning ta'mini" sog'inib yig'lagan podshoh obrazida biz insoniy qalbning eng nozik tebranshlarini ko'ramiz. Uning shaxsiyatida vatanparvarlik shunchaki shior emas, balki fojiali bir sog'inch darajasiga ko'tarilgan edi.

"Boburnoma" — o'zbek adabiyotida birinchi nasriy memuar va tarixiy-ilmii asardir. Bu kitobda u o'z hayotini ochiq-oydin yozadi. Jahon olimlari uni "Sharqning Avreliy Avgustini" deb atashadi — chunki u o'zini tanqid qilishdan qo'rqmagan.

Boburning she'rleri ("Bobur devoni") esa lirik durdonalardir. U Vatani sog'inchini, muhabbatni, tabiat go'zalligini turkiy (chag'atoy) tilida yozgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur — kurashlardan charchamagan iroda va go'zallikdan sarmast ruh egasi. Uning shaxsiyati bizga shuni o'rgatadi, inson qanday yuqori martabaga erishmasin, o'zining haqiqiy fitratini, ilimga bo'lgan muhabbatini va insoniy samimiyatini saqlab qolishi lozim. Bobur — qilich bilan zabt etgan tuproqlardan ko'ra, qalam bilan zabt etgan qalblarda uzoqroq yashayotgan siymodir.

**A.XUJANAZAROV,**  
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**K.MAMATRAIMOV**  
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi

**NAZM**  
**Alisher Navoiy nomi o'zbek adabiy tafakkurining eng baland cho'qqisi sifatida tilga olinadi.**

**KOMILLIKKA BOSHLOVCHI MAYOQ**

Bu buyuk siymo nafaqat turkiy, forsiy tillarda ijod qilib, she'riyatda ham o'ziga xos, yuksak badiiy maktab yaratgan ijodkoridir. Navoiy fors tilida "Foniy" taxallusi bilan ijod qilib, bu tilda yozilgan g'azallari orqali o'zining ma'naviy-falsafiy dunyoqarashi, orifona tafakkuri va badiiy mahoratini namoyon etdi. Shoir Hofiz, Sa'diy, Jomiy singari ulug' shoirlar an'analari davom ettirar ekan, ularni o'z ruhiy tajribasi va ma'rifiy qarashlari bilan boyitdi.

Navoiy g'azallarida ishq mavzusi markaziy o'rinni egallaydi. Ammo bu ishq oddiy oshiqona tuyg'u emas — ilohiy ishq, haqiqat ishq darajasiga ko'tarilgan ma'naviy hodisadir. Shoir uchun ishq — insonni komillikka eltuvchi qudratli kuchdir. Masalan, Foniy devonidagi mashhur baytlardan biriga e'tibor qilaylik:

**Dar rah-i ishq agar sar ba sar jon ravad, Bo'd az avval ma'lum, ki injon ravad.**

Sharh: Bu baytda shoir ishq yo'lida jon berish g'oyasini tabiiy va muqarrar hol sifatida talqin etadi. "Agar ishq yo'lida boshdan-oyoq jon ketsa, bu avvaldan ma'lum edi", deya ishqning talabini qat'iy va murosasiz tarzda ifodalaydi. Bu yerda ishq — sinov, jon esa fido qilinadigan omonatdir.

Navoiyning forsiy g'azallari tasavvufiy timsollarga nihoyatda boy. May, mayxona, soqiy, yor, hijron kabi obrazlar orqali shoir botiniy ma'nolarni ifodalaydi.

Navoiy she'riyati til jihatidan nihoyatda sayqal topgan. Uning tashbehleri, isteoralari, tanosub va talme san'atlari sharh mumtoz poetikasining eng yuksak namunalari hisoblanadi. Navoiy g'azallari orqali o'ziga xos falsafiy chuqurlik, orifona nafasat va insoniy samimiyat olib kirdi. Bugun bu meros nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng kitobxon omma uchun ham bebaho ma'naviy xazinadir.

**Nigora XUDYOROVA,** Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi

# TASHABBUS, TAJRIBA VA NATIJA UYG'UN BO'LSA...

**Bugun yoshlar bandligini ta'minlash, ularni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatish har bir hudud taraqqiyotining muhim omiliga aylangan. Ayniqsa, tashabbuskor va bilimli yoshlar safini kengaytirish nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyatini, balki jamiyatning iqtisodiy barqarorligini ham ta'minlaydi.**



Shu maqsadda "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasining viloyat filiali tomonidan o'tgan yillar davomida tizimli va samarali ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 765-son qarori doirasida bitta loyiha uchun 500 million so'm imtiyozli kredit ajratilib, 8 dan ortiq yangi ish o'rni yaratildi. Bu ko'rsatkich son jihatdan kichik tuyulishi mumkin, biroq har bir yangi ish o'rni ortida bir olingan barqaror daromad, yoshlarning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi va mahalliy iqtisodiyotning mustahkamlanishi turadi.

subyektiga aylanishi uchun zamin yaratadi. Hisobot davrida 23 marotaba seminar-trening, 3 marotaba "Biznes marafon" hamda 29 marotaba "Biznes sayohat" tashkil etildi. Seminar-treninglarda yoshlar biznes-reja tuzish, marketing strategiyasi ishlab chiqish, moliyaviy rejalashtirish bo'yicha amaliy bilimlarga ega bo'ldi. "Biznes marafon"lar esa ularga ruhiy motivatsiya, qat'iyat va yirik maqsadlar sari intilish kuchini berdi. Jumladan, Termiz shahridagi "Indenim tekstil" fabrikasida o'tkazilgan "Biznes marafon"da muvaffaqiyatli tadbirkorlar — Jahongir Ortixov, Jahongir Adhamov, Zafar Hoshimov, Husan Mamasaidov ishtirok etdi. Ularning hayotiy

Imtiyozli moliyalashtirish yoshlarning g'oyasini amaliy loyihaga aylantirish, kichik biznesni yo'lga qo'yish va kelgusida yirik tadbirkorlik tajribasi yoshlar uchun tayyor muvaffaqiyat formulasi emas, balki mehnat, tavakkal va qat'iyat yo'li borligini ko'rsatdi.

**IMKONIYAT**

Prezidentimiz rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablarida 64 marotaba o'quv-seminar tashkil etilib, 2 600 nafar o'quvchi qamrab olindi. Bu tadbirlarning ahamiyati shundaki, yoshlar maktab davridayoq tadbirkorlik tafakkurini shakllantira boshlaydi. Masalan, "Millat umidi" universiteti loyihasi asoschisi Umidjon Ishmuhammedov ishtirokidagi uchrashuvlar bitiruvchilarga oliy ta'lim va biznesni uyg'un olib borish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Shuningdek, Yoshlar ishlari agentligi, Savdo-sanoat palatasi hamkorligida "e-kasb.uz" platformasi orqali yoshlarga onlayn kasb-hunar o'rganish imkoniyati yaratildi. Platformaga viloyatdan 21 ta o'quv markazi joylashtirilib, 3 500 nafar yosh targ'ibot tadbirlariga qamrab olindi. Bu esa chekka hududlardagi yoshlar uchun ham teng imkoniyat yaratib, zamonaviy kasblarni masofadan turib egallashga xizmat qilmoqda. Chet elda ishlash istagidagi yoshlar bilan tizimli ishlash maqsadida shtab tashkil etilib, kasb-hunar, chet tili va mehnat qonunchiligi bo'yicha o'quvlar yo'lga qo'yildi. Bu tashabbus yoshlarning noqonuniy migratsiya xavfini kamaytirish, ularni huquqiy himoya qilish va xorijda munosib mehnat faoliyatini



yuritishiga xizmat qiladi. Yirik ishlab chiqarish korxonalariga uyushtirilgan "Biznes sayohat"lar yoshlarning amaliy bilimni oshirdi. "Gold Agro Fresh" issiqxonasi, "ZIF TEKSTIL", "Durdoni Asila Angor", "Imkon PM", "BILLION school" kabi korxonalaridagi jarayonlar bilan tanishish orqali yoshlar ishlab chiqarish zanjiri, boshqaruv va marketingni joyida ko'rdi. Bu kabi tashriflar nazariy bilimni real amaliyot bilan mustahkamlab, yoshlarning kelajak kasbini ongli tanlashiga yordam beradi. Shu bilan birga, 400 nafardan ortiq yoshlarga huquqiy savodxonlik, buxgalteriya hisobi, marketing, branding, bank va sug'urta masalalarida beg'araz konsalting xizmatlari ko'rsatildi. Bu xizmatlar yosh tadbirkorlarning xatolarga yo'l qo'ymasligi, biznesni qonuniy va barqaror yuritishiga xizmat qiladi. Yoshlarning bandligi — bu nafaqat shaxsiy daromad, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, jinoyatchilikning kamayishi va iqtisodiy o'sish demakdir. Har bir muvaffaqiyatli yosh tadbirkor — yangi ish o'rinlari, yangi g'oyalar va yangi soliq tushumlari manbaya hisoblanadi. Band yosh — bu o'z kelajagiga befarq bo'lmagan, Vatani taraqqiyotiga hissa qo'shayotgan fuqarodir. "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi viloyat filiali tomonidan amalga oshirilgan ishlar yoshlarni qo'llab-quvvatlashning aniq va samarali modelini namoyon etmoqda. Kredit ajratishdan tortib, motivatsion marafonlar, onlayn platformalar, amaliy biznes sayohatlar va konsalting xizmatlarigacha bo'lgan tizim yoshlarning g'oyasini real natijaga aylantirishga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, bu tashabbuslar yoshlarni ish izlovchidan ish beruvchiga aylantirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Demak, Surxondaryo yoshlar tadbirkorligi — kelajak iqtisodiyotining mustahkam poydevoridir.

**Otabek ABULQOSIMOV,** "Yoshlar-kelajagimiz" jamg'armasi Surxondaryo viloyat filiali rahbari

## OQIBATSIZ QARINDOSH

Sudlov hay'ati ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari, to'plangan dalillarni atroflicha o'rganib, shikoyatda keltirilgan vajlarni ish materiallari asosida muhokama qilib, birinchi instansiya sudining arizani qanoatlantirish haqidagi qarori bilan kelishmasdan, arizani qanoatlantirish haqida yangi qaror qabul qilindi. Ish holatlari bo'yicha arxivdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 1998-yilda shaharcha fuqarolar yig'ini hududidan fuqaro G'afur Aliyevga (ismi-sharifi o'zgartirilgan) 0,08 ga yer maydoni ajratib berilgan. Mazkur qarorga asosan Davlat kadastrlar palatasi tomonidan yer maydoni va uy-joy fuqaro G'.Aliyevning nomiga kadastr hujjati rasmiylashtirilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Davlat kadastrlar palatasi tomonidan uy-joy va yer maydonini davlat ro'yxatidan o'tkazishda bir qator qonun va qonunoshti hujjatlariga rioya qilinmaganligi ma'lum bo'ldi. Natijada, fuqaro G'.Aliyev tomonidan o'z nomiga o'tkazilgan uy-joy boshqa bir necha fuqarolarga sotilib, keyinchalik ularning nomiga rasmiylashtirilgan.

Kunlardan bir kuni bu voqealardan xabar topgan N.Hasanova marhum otasiga tegishli bo'lgan uy-joydan meros olish huquqi buzilganligi, qonun talabi bo'yicha ushbu uy-joy dastlab otasining nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilishi mumkinligini inobatga olib, uning huquqlari, erkinliklari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari Davlat kadastrlar palatasi tomonidan buzilgan deb sudga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Aslida, marhum (arizachi va uchinchi shaxsning otasi) ning nomiga ajratilgan yer maydonida 1965-yilda qurilgan uy-joyda marhum va uning oila a'zolari (farzandlari bilan birga) yashab kelgan. Marhum uy-joyga nisbatan 1994-yilga kelib, uyni xususiyashtirish to'g'risidagi qarorini qo'lga kiritgan. Shuningdek, fuqaro G'.Aliyevga ham 1998-yilda boshqa bir mahalla hududidan ajratilgan yer maydonini hujjatlarini rasmiylashtirib, boshqa fuqaroga sotib, begonalashtirishga erishadi. Shundan so'ng, uddaburon

**Ma'muriy sudga arizachi Nigora Hasanova (ismi-sharifi o'zgartirilgan) ariza bilan murojaat qilib, javobgar Davlat kadastrlari palatasining tuman bo'limi marhum otasiga tegishli uyojyoni ukasining nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilishini haqiqiy emas deb topishni so'ragan. Birinchi instansiya sudning hal qiluv qarori bilan arizani qanoatlantirish rad etilgan. Arizachi qarordan norozi bo'lib, apellyatsiya instansiya sudiga shikoyat bilan murojaat qilgan.**

farzand G'.Aliyev yagona o'g'il farzandligidan foydalanib, boshqa hududda ajratilgan yer maydonining hujjati bilan otasining nomida qaror mavjud bo'lsa-da, o'z tug'ishganlarini merosga bo'lgan huquqdan mahrum qilish va ushbu uy-joyni qo'lga kiritish maqsadida, go'yoki marhum otasining mulki bo'lgan uy-joy unga tegishli ekanligi, bu haqda qaror mavjudligi vaji bilan Davlat kadastrlar palatasiga hujjatlarini taqdim etadi.



Sudlov hay'ati ish jarayonini o'rganish davomida, Davlat kadastrlar palatasi hujjatlarini atroflicha o'rganmaganligi, Yer kodeksi, Vazirlar Mahkamasi qarori, Plenum qarorining talablariga rioya qilmaganligi oqibatida, marhum otaga tegishli uy-joyni uddaburon o'g'ilning nomiga kadastr hujjatlarini rasmiylashtirib, davlat ro'yxatidan o'tkazib bergan. Oqibatda, sudlov hay'ati tomonidan birinchi instansiya

sudining qarori bekor qilinib, ish bo'yicha yangi qarorga ko'ra arizachining arizasi qanoatlantirilgan. Sud idorasi tomonidan Davlat kadastrlari palatasining marhum otaga tegishli bo'lgan uyojyoni o'g'ilning nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilishi haqiqiy emas deb topilgan. Ish yakuniga yetgach, arizachi opa sudda shunday fikr bildirdi. Ota-onamizdan olti nafar qiz va bir nafar o'g'il farzand qolgan. Bizning maqsadimiz, ota-onamizga tegishli bo'lgan uyni otamizning nomiga o'tkazib, kelgusida meros talashish emas, balki uy-joydan ukasi bemaol foydalanishi, faqat uyga kelganida ota-onasining xotinalarini yo'qotmaslik edi, — deydi. Lekin ukasi uy-joyni begona shaxslarga sotib, hatto uysiz, oqibatda turmush o'rtog'i va farzandlari ham ko'chada qolish darajasiga yetgan. Sud jarayonida tug'ishganlari oldida mulzam bo'lgan aybdor uka bu fikrlarga javoban lom-mim demadi. Chunki u o'z qarindoshlari oldida uyatli edi.

**A. MUHIDDINOV,** Surxondaryo viloyat Ma'muriy sudi sudyasi

## DIQQAT, TEMIR YO'L KESISHMASI!

Barchamizga ma'lumki, temir yo'l tizimida harakat xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, temir yo'l kesishmalaridan avtotransport vositalari va piyodalarning o'tishda yo'l qoidalariga rioya qilgan holda, o'ta ehtiyotkor bo'lishlarini iltimos qilib qolamiz. "O'zbekiston temir yo'llari" AJga qarashli temir yo'l kesishmalarida so'nggi yillarda avtotransport haydovchilarining e'tiborsizligi

natijasida yuk va yo'lovchi poyezdlari bilan bog'liq ko'ngilsiz holatlar ko'payib bormoqda. Shu sababli, "Termiz temir yo'l masofasi" filiali tasarrufidagi temir yo'l kesishmalarida, avtobus saroylarida va avtotransport to'xtash joylarida, maktab-u mahallalarda Surxondaryo viloyati IIB YHXB xodimlari bilan temir yo'l qoidalariga qat'iy rioya qilish bo'yicha tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Avtotransport haydovchilari va yo'lovchilari temir yo'l kesishmasidan harakatlangan vaqtda hushyorlikni oshirgan holda yo'l belgilariga qat'iy rioya qilishlarini so'raymiz. Temir yo'l kesishmasiga yaqinlashganda ogohlantiruvchi belgilar haydovchilarga xavfli yo'l qismiga yaqinlashayotganligi haqida axborot berib, unda harakatlanishda sharoitga qarab tegishli chora ko'rishni talab qiladi. "Shlagbaumli temir yo'l kesishmasi", "Shlagbaumsiz temir yo'l kesishmasi", "Bir izli temir yo'l", "Ko'p izli temir yo'l" belgilari shlagbaum bilan jihozlanmagan temir yo'l kesishmasi oldida o'rnatiladi. "Temir yo'l kesishmalaridan

foydalanish qoidalarini"da ko'rsatib o'tilgan belgilar fuqarolarning sog'ligini muhofaza qilish, favqulodda va tasodifiy hodisalardan himoyalash, harakatlanuvchi transport vositalari xavfsizligini ta'minlashga qaratilganidir. Shuni unutmashlik kerakki, yo'l harakati qoidalarini birgina shu soha xodimlari uchun emas, balki barcha fuqarolar uchun birdek tegishlidir. Ayni paytda "Termiz temir yo'l masofasi" filiali tasarrufida 56 ta temir yo'l kesishmasi mavjud bo'lib, ulardan 10 tasi qo'riqlanadigan temir yo'l kesishmasidir, ularning 5 tasi UZP qurilmalari bilan jihozlangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi "Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish to'g'risida"gi 172-sonli qaroridagi 1-ilovaga asosan: mazkur Qoidalarining 119-bandiga ko'ra, kesishma orqali harakatlanish taqiqlangan hollarda haydovchi to'xtash chizig'i, "2,5" yo'l belgisi yoki svetofor oldida, ular bo'lmaganida, shlagbaumga kamida 5 metr, shlagbaum bo'lmaganida esa birinchi temir yo'l iziga kamida 10 metr qolganda to'xtashi kerak. Mazkur qarorning 1-ilovasiga asosan: belgilangan Qoidalarining 116-bandiga ko'ra, Transport vositalarining

haydovchilari temir yo'llarni faqat temir yo'l kesishmalari orqali poyezd (lokomotiv, derzina)larga yo'l berib, kesib o'tishi lozim. 117-bandiga ko'ra, temir yo'l kesishmasiga yaqinlashib, uni kesib o'tmoqchi bo'lgan haydovchi kesishma navbatchisining ko'rsatmalariga, svetofor ishoralariga, yo'l belgilari, yo'l chiziqlari, shlagbaum holatiga amal qilishi va yaqinlashayotgan poyezd (lokomotiv, derzina) yo'qligiga ishonch qilish shart. Transport vositasining haydovchilari temir yo'llarni faqat temir yo'l kesishmalari orqali (poyezd lokomotivi, derzina)larga yo'l berib, kesib o'tishlari mumkin. Yuqoridagi holatlar-ni oldini olish maqsadida haftaning har chorshanba kunida IIB Transportda XTB xodimlari, YHXB xodimlari bilan birgalikda temir yo'l kesishmalari va temir yo'l iziga yaqin joylashgan maktab, mahalla fuqarolariga temir yo'l qoidalariga rioya qilish bo'yicha zaruriy tushuntirish ishlari olib borildi. Fuqarolardan temir yo'l kesishmalaridan o'tishda o'ta ehtiyotkor bo'lishlarini iltimos qilib qolamiz.

**O. KURBANAZAROV,** Transport nazorati inspeksiyasi temir yo'l transportida nazorat Qashqadaryo viloyati hududiy bo'limi boshlig'i  
**O. NARMAMATOV,** "Termiz temir yo'l masofasi" filiali boshlig'i



Шу боис, муқаддас ойнинг ҳар лаҳзаси инсонлар ҳаётида чуқур из қолдиради. Рамазон ойида тонгдан кўш ботгунга қадар тутилган рўзанинг аҳамияти ҳам бекиёс. Рўза фақат овқат ва ичимликдан тийилиш эмас, балки ёмон сўзлардан, ғазаб ва ҳасад сингари салбий иллатлардан тийилиш демакдир. Шу тариқа рўза инсонни руҳий жиҳатдан поклайди, қалбни тозалайди ва Аллоҳга яқинлаштиради. Бошқа бир жиҳатдан рўза сабр-тоқатни оширади, инсонни ўз устида ишлашга ундайди. Рўза тутиш орқали одамлар салбий одатларидан воз кечишни, қалбни юмшатишни ва меҳр-муҳаббатни

кучайтиришни ўрганадилар. Шу билан Рамазон инсонни ички тинчлик ва маънавий барқарорликка етаклайди. Рамазон ойининг яна бир муҳим жиҳати — ижтимоий бирликдир. Бу ойда одамлар нафақат ўзини поклайди, балки жамиятга фой-

ажралмас қисмидир. Ҳар йили Рамазон олдидан турли ташкилотлар, корхоналар хайрия акцияларини, ифторлик тадбирларини ва ижтимоий лойиҳаларни амалга оширадилар. Бу тадбирлар ёрдам олувчилар учун қувонч, ёрдам қилувчилар учун

Шуни ҳам таъкидлаш керакки, Рамазон ойида оилавий қадриятлар ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Оила аъзолари биргаликда ифторлик қиладилар, тонг намозида қатнашадилар ва Қуръон тиловат қилишади. Бу оилада меҳр-муҳаббатни мустаҳкам-

ундайди ва болаларга сабр-тоқат, яхшилик ва хайр-эҳсон қилиш каби қадриятларни ўргатади. Шу тариқа, бу ой шахсий ва ижтимоий тарбия манбайи сифатида ҳам аҳамиятлидир. Рамазон нафақат ибодат ва хайрия, балки маданий ва таъли-

ди, анъанавий ҳамда диний қадриятларни сақлаш ва ривожлантиришга хизмат қиладди. Рамазон инсонлар орасида меҳр-оқибат ва бир-бирини ҳурмат қилиш одатларини мустаҳкамлаш даври сифатида ҳам намоён бўлади. Шу сабабли, бу ой жамиятда

учун қувончли воқеа. Рамазон ойида инсон қалбини тозалайди, сабр-тоқатни оширади ва ижтимоий масъулиятни ҳис қиладди. Ҳар бир мусулмон бу ойда ўзини тарбиялаш, оиласи билан боғлиқликни мустаҳкамлаш ва жамиятда яхшилик қилишга интилади. Шу билан Рамазон нафақат шахсий, балки ижтимоий баракали ва фойдали даврга айланади. Бу даврда ҳар биримиз меҳр-муҳаббатни кучайтириш, бирдамликни мустаҳкамлаш ва руҳий жиҳатдан ўзимизни бойитишга интилишимиз зарур.

TAVSIYA

## РАМАЗОН — ИЧКИ ТИНЧЛИК, МАЪНАВИЙ БАРҚАРОРЛИККА ЕТАКЛАЙДИ



**Ҳар йили мусулмон дунёси интиқлик билан кутадиған Рамазон ойи келди. Бу ой нафақат тоат-ибодат ва рўза билан боғлиқ, балки руҳий покляниш, сабр-тоқатни ошириш ва жамиятда бирдамликни мустаҳкамлаш даври сифатида эътиборга лойиқдир.**

дали бўлишга ҳаракат қиладди. Фақир ва етимларга ёрдам бериш, хайрия тадбирларида иштирок этиш ва ҳамжihatликни ошириш Рамазон ойининг

эса руҳий мамнуният манбайи бўлади. Шу тариқа, Рамазон нафақат шахсий, балки ижтимоий баракани оширувчи ой сифатида ҳам намоён бўлади.

лайди ва авлодлар ўртасида диний қадриятларни узлуксиз давом эттиришга хизмат қиладди. Рамазон оилаларни бирлаштиради, яқинлар билан вақт ўтказишга

мий фаолият ойдир. Масжидларда Қуръон мусобақалари, диний маърузалар ва маънавий тадбирлар ўтказилади. Бу тадбирлар ёш авлодни иймон ва диний билимлар билан таништира-

тинчлик, ҳамжихатлик ва дўстона муносабатларни оширишга ёрдам беради. Руҳий покляниш ва ижтимоий бирлик ойининг яқинлашгани нафақат мусулмонлар, балки бутун жамият

**Мухлиса ЭРГАШОВА,**  
Имом Термизий илмий-тадқиқот маркази илмий ходими

### ТААССУРОТ



## БИЛИМЛАРНИ БИРЛАШТИРИБ, КЕЛАЖАКНИ ҚУРАМИЗ

**2025-йил Қозоғистон пойтахти — Астана шаҳри бутун дунё кутубхоначилиги тарихида янги саҳифа очди. Айнан шу ерда, замонавий Astana Congress centre биносида Халқаро кутубхоналар ассоциацияси ва муассасалари федерацияси — IFLAнинг 89-Бутунжаҳон кутубхона ва ахборот конгресси бўлиб ўтди.**



Бу Марказий Осиёда илк бор ўтказилаётган йирик глобал форум бўлиб, бутун минтақа учун фахрли воқеа эди. “Билимни бирлаштириб, келажакни барпо этамиз” шиори остида ўтган конференция дунёнинг 110 дан ортиқ мамлакатидан келган 1 600 дан зиёд иштирокчини бирлаштирди. Кутубхоначилар, олимлар, ахборот технологиялари мутахассислари, маданият ва нашриёт соҳаси вакиллари глобал миқёсда билим, технология ва инсоният ўртасидаги боғлиқлик ҳақида фикр алмашиш имкониятига эга бўлди. Мен ҳам Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси делегацияси таркибида ушбу нуфузли тадбирда иштирок этиш бахтига мушарраф бўлдим.

нутқида шундай деди: **“Кутубхона — бу инсоният хотираси, келажак авлодларга йўл кўрсатувчи маъқдир. Биз билимни адолатли тақсимлаш орқали тинч ва барқарор дунёни қурашимиз”.** Шу ондаёқ ҳис қиласан — бу ерда ҳар бир инсон ўз касбини нафақат иш, балки инсоният хизмати бағишланган миссия сифатида кўради. Бу йилги конгресснинг энг муҳим мавзурларидан бири кутубхоначиликда сунъий интеллект ва рақамли инновацияларни қўллаш эди. Рақамли трансформация, маълумотлар хавфсизлиги, очиқ маълумот сиёсати ва фойдаланувчи марказли хизматлар деярли барча сессияларда марказий ўринни эгаллади. IFLA Data LAB томонидан тақдим этилган янги технологиялар кутубхона маълумотларини автоматик таҳлил қилиш, фойдаланувчи эҳтиёжларини аниқлаш ва тавсия тизимларини такомиллаштиришга қаратилган эди. Қозоғистон Миллий кутубхонаси тақдим этган “DocAI” номили сунъий интеллект тизими эса ўқувчиларнинг қизиқишларига қараб мос китобларни

тавсия қилувчи инновацион лойиҳа сифатида катта қизиқиш уйғотди. Финляндия вакиллари глобал библиографик тармоқларни интеграция қилиш ва очиқ маълумотлар алмашинуви борасида олиб борилаётган ишларини тақдим этишди. Жанубий Корея вакиллари эса инклюзив кутубхона хизматлари — ногиронлиги бўлган фойдаланувчилар учун овозли интерфейслар, тактил экранлар ва қулай рақамли ўқиш тизимларини намойиш этишди. Astana Congress centrening кенг фойёсида жойлашган деворий тақдимотлари эса конгресснинг юраги эди. Ҳар бир тақдимот ўзига хос гоё, тажриба, ечимни мужассам этгандек, дунёнинг турли бурчакларидан келган иштирокчиларнинг ижодий ишлари билан безатилган эди. Мен ҳам тақдимотлар орасида юрган пайтимида, ҳар бир лойиҳа ортида фидокор кутубхоначиларнинг меҳнати, изланишлари ва келажак сари интилишларини ҳис қилдим. Ўзбекистон делегацияси ҳам ўз ишланмаси билан иштирок этиб, мамлакатимизда рақамли хизматлар,

ўқиш маданияти ва ёшлар учун замонавий яратилиш йўлида амалга оширилаётган ташаббуслар билан ўртоқлашди. Айниқса, “Green Libraries” — экологик барқарор кутубхоналар ташаббуси алоҳида эътибор қозонди. Унда чиқиндисиз архив тизимлари, энергия тежамкор ёритиш технологиялари ва экологик онгни кучайтириш йўллари ҳақида сўз юритилди. Конгресс нафақат илмий, балки маданий тажрибалар алмашинуви бўлди. Конгресснинг сўнгги кунлари ҳам илҳом ва руҳ билан тўлди. “Open Access for All” манифестининг эълон қилиниши очиқ билим сиёсати бўлган глобал интиқлиқнинг рамзига айланди. Ёш кутубхоначилар учун ташкил этилган “Next Generation Award” мукофотлари энг илғор, инновацион гоёларни илгари сурган иштирокчиларга топширилди. Шунингдек, IFLA Data LAB томонидан ишлаб чиқилган сунъий интеллект асосидаги янги кутубхона таҳлил платформаси ишга туширилгани ҳақида маълум қилинди. Astana — 2025 — бу нафақат конференция,

балки кутубхоначилик тарихида янги босқич эди. Технологиялар, маданият ва инсон қадриятлари бирлашган бу майдон ҳар бир иштирокчига илҳом, мотивация ва янги йўналиш берди. Ўзбекистон делегацияси учун эса бу сафар халқаро тажрибани ўрганиш, янги ҳамкорлик йўлини очиш ва мамлакатимиз кутубхоналарини рақамли ривожлантириш сари йўналтириш имконини берди. Мен учун бу конференция фақат касбий воқеа эмас, балки шахсий ўсиш, янги дунёқараш ва ишонч манбайи бўлди. Ҳар бир сессияда, ҳар бир суҳбатда мен келажак кутубхонасини тасаввур қилдим: овозли ёрдамчилар, сунъий интеллект асосидаги тавсиялар, виртуал ўқув хоналари ва рақамли маданият билан бойиган, жонли муассасалар... Кутубхона — бу ўтмишдан олинган илҳом, ҳозирнинг имконияти ва келажакнинг йўналишидир. Биз, Ўзбекистон кутубхоначилари ҳам шу йўлда дадил қадам

ташлаб, жаҳон кутубхоначилиги саҳнасида муносиб ўрнимизни эгаллаيمиз. Ха, кутубхона — бу тинчлик, билим ва тараққиёт сари очилган энг ишончли эшиқдир. Конгресс давомида муҳокама қилинган асосий мавзулардан бири — кутубхоналарнинг глобал барқарор ривожланишидаги ўрни бўлди. Мутахассислар фикрича, бугунги кунда кутубхоналар фақат китоб сақловчи маскан эмас, балки билим, инновация ва жамиятни бирлаштирувчи куч сифатида тобора муҳимроқ аҳамият касб этмоқда. Айниқса, рақамли трансформация жараёнида сунъий интеллект, маълумотлар таҳлили ва фойдаланувчи тажрибасига асосланган хизматлар муҳим йўналишлардан бири

сифатида таъкидланди. Конгресс залида IFLA президенти кейинги йилларда ташкилотнинг асосий вазифаси сифатида “Очиқ билим сиёсати”ни кенгайтириш, яъни барча инсонлар учун тенг ахборот имкониятларини яратиш зарурлигини қайд этди. У кутубхоналар тинчлик, ижтимоий барқарорлик ва маданиятлараро мулоқот учун энг қулай макон эканини таъкидлади. Конгресс доирасида ўтказилган маданий дастурлар ҳам унутилмас таассурот қолдирди. Турли мамлакатларнинг миллий кутубхоналари ўз маданияти, адабиёти ва санъатини таништирди. Қозоғистон мезбон сифатида меҳмондўстлиги, ўзига хос миллий куй-қўшиқлари, рақслари билан

хаммининг қалбидан жой олди. Ўзбекистон делегацияси ҳам бу жараёнда фаол иштирок этиб, халқаро ҳамжамиятга ўз маданияти, адабиёти ва меҳмондўстлигини таништирди. Конгресс якунида қабул қилинган “Open Access for All” манифести — бутун дунё кутубхоналарини очиқ ахборот сиёсатини кенгайтиришга даъват этилган ҳужжат сифатида тарихда муҳим из қолдирди. Унда кутубхоналар ҳар бир инсон учун билимга кириш ҳуқуқини таъминлашда энг ишончли восита эканлиги яна бир бор таъкидланди. Бу йирик тадбир нафақат касбий тажриба алмашиш, балки дўстлик, ҳамжихатлик ва янги илҳом манбайи бўлди. Ҳар бир учрашув, ҳар бир мулоқот — янги гоё, янги имконият сари очилган эшиқ эди. Астана конгресси шуну яна бир бор исботладики: кутубхона — инсониятнинг бирлаштирувчи энг кучли маданий кўприқдир.

**Маъруф АБДУШУКУРОВ,**  
Адиб Собир Термизий номидаги вилоят ахборот-кутубхона маркази директори

**SURXON TONGI**  
va  
**ЗАРЯ СУРХАНА**  
gazetalari tahririyati

**MUASSISLAR:**  
Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi va viloyat hokimligi

**TAHIRIYAT**  
Abduraim CHORIYEV (hay'at raisi) Ilhom SAPAROV, Ibrohim YQUBOV, Murodбек DAVLATOV, Iqroriddin AYNIDDINOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV

**Gazeta**  
2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

**BOSH MUHARRIR**  
Salohiddin NORQOBIDOV  
MAS'UL MUHARRIR Sayyora ALLAYEVA  
NAVBATCHI MUHARRIR Xurshid KARSHIYEV  
SAHIFALOVCHI DIZAYNER Dildora VOHIDOVA

**Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qililmaydi va muallifga qaytarilmaydi.**  
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**TELEFONLAR:**  
76 224-23-85,  
76 224-23-80,  
76 224-23-87

**MANZILIMIZ:**  
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy  
**BOSMAXONA MANZILI:**  
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy

**Gazeta**  
“Surxon tongi” va “Zarya Suxhana” gazetalari tahririyati bosmaxonasida chop etildi.